

XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA TURLI XIL METODLAR SAMARASI

Azimova Nozima Xikmatovna

Buxoro shahar 41-umumta’lim maktabi

oliy toifali ingliz tili o’qituvchisi

nozima.azimova.1987@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy til o’qitish metodikasi haqida, xorijiy tillarni o’qitishda qo’llanilayotgan zamonaviy metod turlari hamda ulardan foydalanish samarasi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: metodika, xorijiy til, zamonaviy texnologiya, muloqot, loyiha, unli harflar.

Abstract: This article is about the teaching of foreign language methodology, modern methods used in teaching foreign language and the effectiveness of their usage.

Key words: methodology, foreign languages, modern technology, communication, project, vowels.

Аннотация: В данной статье говорится о методике преподавания иностранного языка, современных методах, используемых в обучении иностранному языку, и эффективности их использования.

Ключевые слова: методика, иностранный язык, современные технологии, коммуникация, проект, гласные.

O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 12 dekabrda qaratilgan “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19-yanvardagi 34-sonli “Xorijiy tillarni o’rganishni takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori asosida mamlakatimizda xorijiy tillarni o’rganishga nisbatan o’quvchi yoshlar orasida til o’rganish jadal rivojlanib bormoqda.

Xorijiy til - o’zga mamlakatlar tili demakdir. Respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida ingliz tili, nemis tili, fransuz tili, koreys tili, yapon tili, fors tili hamda arab tillari o’qitilib kelinmoqda. Bu tillar har bir ta’lim muassasasining o’quv rejasidan o’rin olgan. Har bir tilni o’qitish jarayoni turlichadir. Ona tili tabiiy vaziyatda, chet tili esa sun’iy muhitda ya’ni o’qituvchi rahbarligida o’rganiladi. Har bir tilni o’rganish va o’rgatish ma’lum bir jihatlari bilan farq qiladi. Bu esa o’z navbatida o’rgatish jarayonida turli xil metod va uslublardan foydalanishni keltirib chiqaradi. Chet tilini samarali o’rgatish har bir o’qituvchining metodikani bilishi va qo’llay olishini bildiradi. Tarixiy olimlarning ta’kidlashlaricha metodika bu – san’at.

Xorijiy tilni o’qitish metodikasi bu – chet tili o’qitishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadga erishtiruvchi va ta’minlovchi ustoz, va

o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Til o'rganish yozma, o'qish, tinglab tushunish hamda muloqotga kirish orqali o'rgatiladi. Hozirgi davrda yoshlarimiz orasida til o'rganish odatiy holga aylanib bormoqda. Yoshlarimiz xorijiy tillarni nafaqat ta'lim maskanlarida hatto mobil ilovalar orqali ham o'rganishmoqda.

Dars jarayonida qiyinchiliklar odatda darslar o'quvchilar uchun zerikarli bo'lganligi sababli paydo bo'ladi. O'qituvchilar va o'quvchilar darslarni tashkillashtirishda odatdagidek va an'anaviy darslarni o'qitish bilan mashq qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. An'anaviy darslardan voz kechib har bir berilgan topshiriqlarni dars jarayonida turli metodlardan foydalanilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Dars jarayonlarida guruhlarda ishlash, juft bo'lib ishlash, muammoli vaziyatni o'rtaga tashlash va boshqa turdagi metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin. Quyida xorijiy davlatlarda dars jarayonida foydalaniladigan ayrim metodlardan misollar keltiramiz:

Chain story (hikoya zanjiri) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi. Bunda bir o'quvchi boshlagan hikoyani boshqa bir o'quvchi davom ettirishi lozim bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchining fikrlash doirasining kengligi va so'zamolligi oshadi;

Quiz cards (boshqotirma kartochkalari) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi. Bunda kartochkalardagi savollar o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatiga qarab tuziladi, ya'ni past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun osonroq va iqtidorli o'quvchilar uchun mantiqiy savollar tuziladi;

Project (loyiha usuli) o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini, muomala madaniyatlarini, fikrlarni ixcham va oson shakllantirish qobiliyatini, sinfdosh sheriklarining fikriga toqat qilishi, turli xil manbalardan ma'lumot olish qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan qayta ishlaydi, tabiiy ehtiyoj paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan til muhitini yaratadi.

Where are the vowels? (unlilar qayerda?) o'quvchilarda so'zlarni harflab aytish qobiliyatini oshiradi. Bunda o'qituvchi doskaga yozadi va unli harflarni tushurib qoldiradi, o'quvchilar unli harflarni to'g'ri joylashtirib yozishlari kerak bo'ladi. Bu juda oson tuyulishi mumkin lekin o'qituvchi so'z tanlashda o'quvchilarning yoshini ham hisobga olishi lozim. Bunda o'quvchining yozish, eslab qolish va lug'at bilish darajasi mustahkamlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilni chuqur o'rganish, oson muloqotga kirishish uchun yuqorida sanab o'tilgan metodlarni samarali qo'llagan holda ingliz tilini o'qitish lozim. Fikrimcha, avval o'quvchini ingliz tilida so'zlashga o'rgatib, ikkinchi bosqichda shu tilda o'ylashga o'rgatish lozim. Bu ancha qiyin, ammo amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayon. Buning uchun ingliz tili o'qituvchisi dars berish

metodini standart yondashuvdan tashqari turli xil o'yinlar, o'rtoqlari bilan muloqot, xatolarni topish bo'yicha mashqlar, matnlarning qiyosiy tahlili kabilar bilan boyitishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidova N.A. (2021 dekabr) Интекактивные методы обучения языку в малых группах. В междисциплинарной конференции молодых учёных в области социальных наук. (стр 20-22)
2. Bekmuratova U.B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent – 2012 yil
3. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo'llanma), Navoiy,2006, 40 bet
4. Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. Academic research in educational sciences
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-o'qitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar>
6. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/9826>